

ZULFIYA MO'MINOVA SHE'RIYATINING MILLIY –MADANIY
XUSUSIYATLARI

*Normamatova Nigina
Olot tumani 12-umumiy o`rta ta'lim maktabi
Ona tili va adabiyot o`qituvchisi*

Annotatsiya: She'riyat o'z mohiyati bilan his –tuyg'ular va ijtimoiy hodisalar ko'zgusidir.Zulfiya mo'minova ijodidagi milliy tushunchalar va o'ziga xos jihatlar tahlilga molikdir.

Kalit so'zlar: Milliylik, lirika, istiqlol, globallashuv, tafakkur, lingvopoetik.

Adabiyot o'z mohiyati bilan umuminsoniyatga daxldorlik qilsa-da ,u o'zini milliy shaklda namoyon qiladi.O'zida millat fitratiy holatini aks ettiradi."Adabiyot yashasa , millat yashaydi "-, jumlasining bugun aforizmga aylanganiga ham bois shudir.Zamonlar otadi ,tafakkur evriladi , ehtimol ,she'riyatda surat o'zgaradi.Bu haqiqatlarga qaramay ,adabiyot, she'riyatning darajasi –milliy ruh va mahoratga ko'ra baholanadi.

Texnika-texnologiyalar asrida globallashuv sabab,xalqlarning madaniy qarashlari,san'ati o'zaro yaqinlashib,yaxlitlashib bormoqda.Adabiyot-ijtimoiy hodisa.Shunday ekan,u davr bilan hamnafas va hamohang.E'tiborlisi , u har qanday makon va zamonda ham o'z qahramonlarini izlab topadi.Hozirgi o'zbek she;'riyatining ma'naviy miqyosi , badiiy salohiyati kundan kunga o'sib , yangilanib bormoqda. Mustaqillik,istiqlol sabab she'riyatga e'tibor ,ayniqsa , yaqqol ko'zga tashlanmoqda.Buni ijodkorlarimizning yangroq ovozidan sezish mushkul emas. "Shoirlik qismatiga bardosh berish,uning shon –shuhratiga munosib yashash,eng muhimi shoir o'z millatining vijdoni, yuzi , so'zi va ko'zi ekanini har doim esida tutishi ,albattra , osonmas. Shoir –istedod egasi ,shoir so'z va tafakkur odami ,shoir iste'dodli dardmand inson., shoir –el-yurt quvonchiga sherik odam..." ,- degan edi adabiyotshunos Bahodir Karim. Haqqiqatan,shoirlik bu qismatdir.

Shu qismat sohibasi bo'l mish Zulfiya Mo'minova ijodi mavzu ko'lami va topilmalarga boyligi bilan ham ahamiyatlidir.

Zulfiya Mo'minova -1959-yil Samarqand viloyatining narpay tumanida tug'ilgan.Mirzo Ulug'bek Nomidagi Toshkent Davlat Milliy universitetida tahlil olgan.1980- yillarda o'zbek adabiyotiga kirib kelgan ijodkor bugungi kunda "Beshiklarni asragin,dunyo", " Vatan tashlab ketmaydi", "Istiqlol oltin gulim", "Yonayotgan ayol", "Ayolga baxt bering , saodat bring " kabi qator she'riy to'plamlar muallifidir. Uning she'rlari tub mohiyati bilan milliy o'zlikni anglashga , urf –odat va an'anarga hurmat ko'rsatish, bag'rikenglik kabi tushunchalarni chin ma'noda targ'ib etrishga

qaratilgandir. She'riyat insonlarda kelajakka ishonch va yashashdan shukronalik hissini mustahkamlashga xizmat qilishi lozim. Ijtimoiy hayotda sodir bo'layotgan o'zgarishlar, lirkada, shubhasiz, aks -sado beradi. Bu narsa uning tamoyillarini ham belgilaydi. Bugunning she'riyatida milliy ruh tamoyili yetakchilik qilmoqda. Milliylikdan xoli bo'lган tuyg'u ta'sir kuchini yuqotishi bor gap. Abdulla Oripov :xalqning olmas ruhiyatini , qadriyatlarini,milliy o'ziga xosligini , va nihoyat , beba ho til boyligini mujassam eta olganhaqiqiy ijod namunalarigina yashashga haqli",-deya ta'kidlagan edi. Zulfiya Mo'minova muhabbat haqida yozadimi,inson kechinmalari to'g'risidami uning ko'z ongida Vtan gavdalanadi:

Vatan desam onam keladi ,
Oq ro'mollar o'rabboshiga.
Men onamdan qarzdor kabi ,
Qarzdorman shu so'z oldida.

Ushbu parchadagi "Oq ro'mollar o'ragan ayol " nafaqat lirk qahramonning , balki , butun o'zbek ayolining , o'zbek onasining timsoliga ishoradir. Yoki :

Kitob bilan nonni teng ko'rgan
Ulug'lar darsxonasi –Vatan!
Mehnat bilan sochi oqargan
Onaginam onasi –Vatan !

Ushbu misralarni o'qigan o'quvchida xuddi non singari kitobning ham uvolidan qo'rqish hissi , qolaversa buyuklarning avlodi ekanidan faxrlanish tuyg'usi uyg'onadi , albatta.O'zbek ayollarining mehnatkashligi esa go'zal tashbehda milliylik kasb etgan.

Beshigida go'dak uxlagan yurtim,
Shukrlar aytadi har yorug' kungaa.
O'g'il tug'ganida sevingan ONA-
Vatanni ishonib bo'lmas har kimga.

Ijodkorning vatan madhiga bag'ishlangan she'rlari ona timsoli bilan yonma-yon kelishi ko'p o'rirlarda ko'zga tshlanadi:

O'zbekiston – ona , onajon!
Ona , Sandig'ingda qonli ko'ylak bor.
Qirq birinchi yilda teshib o'tgan o'q,
Ona , ko'kragingda olov yurak bor.
Qahraton ayozda muzlagani yo'q.

Bu she'riy parchada O'zbekiston – onaga qiyoslanar ekan ,uning sandig'i-o'tmis; qonli ko'y lagi-tariximizdagи urush yillari; ko'kragidagi olov yurak- tinchlikka umid; muzlamagani-shu umidning so'nmganiga ishoradir. Bu she'rni oxirigacha o'qigan o'quvchi lirk qahramonga nimalarnidir aytgisi, xulosada esa , undan faxrlangisi keladi. Bular shunchaki alqash emas , chinakamiga milliy ruhni obrazli ifodalashdir.

Ma’naviy dunyoqarashni shakllantirishda, tarixiy xotiranng o’rni beqiyos. Zulfiya Mo’manova ijodida o’z o’tmishi ,ajdodlari bilan g’ururlanish va shu asnoda buni keljak avlod ruhiga singdirish masalasi yetakchilik qilgan o’rinlar ham talaygina :

Menkim , xonlar bergan, sultonlar bergan ,
Qutlug’ Nigorlarning zuryodidirman.
Sohibqiron sevgan Bibixonimning ,
Saroymulkxonimniing avlodidirman.

Ushbu misralardagi tarixiy shaxslar har birimizga tanish.Qutlug’ Nigorxonimning jasoratlari va Bibixonimning aql –zakovati to’g’risidagi tarixiy bilomlarimiz she’mi o’qishimiz bilan yodimizga tushadi. Yoki :

Mening bobolarim muhabbat haqqi
Toshlarni taroshlab tojmahal etgan.
Mening momolarim Alpomishni
Umr bo’yi kutgan , intizor kutgan.

Ushbu misralarni tahrirga tortishdan oldin , aytish joizki,”Milliy” so’ziga “O’zbek tilining izohli lug’ati “da quyidagicha ta’riflar berilgan :

Milliy [a.] 1. Biror millatning , xalqning o’ziga xos bo’lgan, uning xususiyatlarini ifodolovchi.

2. Biror mamlakatga , davlat va uning aholisiga oid.
3. Millat bilan bog’liq , millatiga ko’ra bo’lgan.

Ushbu so’zning lug’aviy ma’nosи bilan yuqoridagi misralarni tahlilga tortish yanada asoslidir. “Toshlarni taroshlab “- ushbu jumla ,adabiy bilimlarimizga tayanib aytganda, “Xamsa” qahramoni Farhod obraziga ishoradir. “Farhod va Shirin” dostonida Farhhod o’z yori Shiringa erishish uchun to’shni yo’nib, suv chiqargan va qahramonlik ko’rsatgan. Qolaversa, tarixiy ma’lumotlar shuni ko’rsatadiki, Temuriyzoda Shohjahon Sulton o’zining suyukli rafiqasi Mumtozmahalga bo’lgan sadoqati ramzi sifatida Hindistonda ulkan Tojmahal bunyod etgan va ushbumuhabbat koshonasi bugun dunyoning yeti mo’jizasidan biridir. O’z Alpomishi kelishiga umid bog’lab, qalmoqlarga olti oy muhlat bergen ,o’zbek xalqining jasorat va sadoqat ramziga aylangan Barchinoy obrazini zulfiya Mo’manova “Mening momolarim “ deya xotirlaydi.Ko’rinib turibdiki,ushbu xotira ijodkorga ruhiy madad singari g’oyaviy quvvat beraotganini sezishimiz mumkin.Milliy ruh uch jihat – harakat , holat va nutq uyg’unligiga bog’liq.lirk asarlarda esa uning nutq va holat qirralari yetakchilik qiladi.

Ijodkorning qaysi she’rini o’qimang , unda shunchaki his tuyg’u va kechinmalar emas , balki, aniq maqsad ifoda etilganiga guvoh bo’lasiz.Masalan :

Xazinai jahon u,
Kichik Abu Rayhon u,
Sizga qarab hayron u,

Bolaga kitob bering!
 Buxoriy –sarvarim u,
 Termiziy –anvarim u,
 Mahmud Zamahsharim u,
 Bolaga kitob bering!

E'tibor qaratadigan bo'lsak, yuqorida she'riy parchada bir qator o'zbek allomalarining nomlari zikr etilgan , demak, muallifning maqsadi nafaqat kitobxonlikka chorlash , balki, o'quvchiga kimlarning avlodi ekanini eslatish va ularga munosib avlod bo'lishga undashdir.Yurtboshimiz ta'kidlaganlaridek : “Tarixiy xotirasiz, o'zlikni anglash mumkin emas”.

Zulfiya Mo'minova she'rlarida milliy o'zlikni anglash va targ'ib etish hissi yetakchilik qiladi.Ayniqsa , Vatan va ona mavzusidagi asarlarida faqat o'zbek xalqi uchungina xos bo'lgan insoniy munosabatlar aks ettirilgani ahamiyatlidir.Qolaversa , ijodkorning talay ijod namunalarida ming yillar davomida saqlanib kelingan an'ana va qadriyatlargacha murojaat etiladi.Shu o'rinda O'zbekiston xalq shoiri Muhammad Yusufning “Yaxshi she'r hamisha odamlar orasida bo'ladi “ degan so'zlari nechog'li haqiqat ekaniga guvoh bo'lamiz. Zulfiya Mo'minova she'rlari ham insonlar orasidagi ijtimoiy munosabatlar,ular qalbidagi yashirinib yotgan ezgu tuyg'ular asosiga qurilgandir.Shoir faqatgina tuyg'ular ifodasi bilan chegaralanib qolmasdan,o'z ijod namunalarida aniq maqsadning ifodalaniishi bilan zamondosh ijodkorlardan bir qadar farqli xususiyatlarga egadir.Uning ijodida kitobxoni yangi tarixiy voqelikni his qilishga,yangilanish va poklanishga chorlovchi g'oyalarni ko'ramiz.Bu g'oyalalar doimgidek baland pardalarda tarannum etilgan , ammo shunchaki hissiz so'zlar bilan emas!Bu so'zlar yurak qa'ridan , yurak qonlariga qo'shilib chiqqan,shu bois ,boshqa qalblarga –da yetib bormoqda.Shu tariqa, shoira ijodida xalqni uyg'otuvchi ,unda milliy g'urur va e'tiqod, istiqlol va istiqbolgaa isshonch tuyg'ularini ardoqlovchi she'rlar yetakchilik qiladi.

Adabiyotshunoslar G'afur G'ulomning “Sog'inch “ she'rini o'zbek otasiga qo'yilgan haykal deb atashadi.Zulfiya Mo'minova ijodini kuzatar ekanmiz, lirik qahramon otasiga,bu orqali esa Vatan va yurt timsollariga ko'p bora murojaat qilinganiga guvoh bo'lamiz.Masalan, “O'zbekiston otamga o'xshar ” she'rini o'qir ekansiz, she'rning boshdan oyoq milliy ruhda yozilganining shohidi bo'lasiz :

U ham sahar turib omonlik kutar ,
 Qizlari- oy kabi to'linlariga.
 Uyalmasin debmi qaramay o'tar ,
 O'zidan kech turgan kelinlariga.

Shu o'rinda adabiyotshunos Nurmon Jabborovning: “Milliy ruh ekan deb ko'pda egniga chopon tashlab ,beliga belbog' boylab yaktakchan bo'z yigit obrazini yaratishga urinamiz...Urg'uni tashqi metaforik chizgilarga yuklaymiz.Jo'ngina aytganda milliy rujni kiyim-kechaklar qatiga berkitamiz.Holbuki , zamon , makon va holatni ifodolovchi birgina

HARAKAT, birgina SO'Z yakka obraz timsolidatarbiya va muhit , asar ruhi pirovardida millat xarakterining “kod”lari aslida. Shu sababdan ham ijodkor o’zi qalamga olayotgan makon odamlari xarakterini (zamondosh bo’lgani holda) ilg’ashi shart...” -,degan mulohazalari asoslidir.” O’zidan kech turgan kelinlariga uyalmasin deb qaramay otish” esa chinakamiga o’zbekona axloq va izzat ifodasidir. She’r quyidagi misralar bilan yakunlanadi:

Otamdek olganin unutmaydi hech ,
Birovga ne bersa , yodida turmas.

She’rdagi ushbu misralar xulosa sifatida “Yaxshilik qil daryoga ot” degan o’zbek xalq milliy maqoliga ishora qiladi. Vatanni onaga qiyoslash –she’riyat , umuman , adabiyot uchun yangilik emas,ammo uni otaga mengzash Zulfiya Mo’manova ijodidagi yana bir takrorlanmas jihatdir.

Foydalilanigan adabiyotlar ro`yxati

1. Zulfiya Mo’manova „Beshiklarni asragin, dunyo“ (1988)
2. Zulfiya Mo’manova „Samoga sochilgan yulduzlar“
3. Zulfiya Mo’manova “Istiqlol — oltin gulim”
4. Zulfiya Mo’manova „Yonayotgan ayol“ (1993)
5. Zulfiya Mo’manova „Azizim, baxtiyorman“ (1997)
6. Zulfiya Mo’manova „Qudratli yurtimga“ (1997)
7. Zulfiya Mo’manova „Birinchi o‘qituvchim“
8. Zulfiya Mo’manova „Nikoh shartnomasi“,
9. Zulfiya Mo’manova „Ayolga baxt bering“, „Bir kun dars qoldirgan bir umr pushaymondir“
10. Zulfiya Mo’manova „Nikoh shartnomasi“ kabi kitoblar muallifi.